

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**KOMPYUTER DIZAYNI VA 3D
MODELLASHTIRISH**

fanidan
USLUBIY QO'LLANMA

“Adobe Photoshop” dasturidan foydalanib matn hafrlariga
turli xildagi effektlar berish.

Dizayn (sanoat) – 5150900

Toshkent 2019

Dmitriyeva I.V., Ma’rufov F.O. Kompyuter dizayni va 3D modellashtirish fanidan uslubiy qo‘llanma. - Toshkent, ToshDTU, 2019. 34 b.

“Kompyuter dizayni va 3D modellashtirish” fanidan ““Adobe Photoshop” dasturidan foydalanib matn harflariga turli xildagi effektlar berish” mavzusida Dizayn yo‘nalishi talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlarda olgan bilimlari asosida mustaqil ravishta ijodiy ishlarini olib borish uchun xizmat qiladi.

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga
asosan chop etildi.*

Taqrizchilar:

T.Sh.Mamatmusayev – TAQI “Arxitektura tarixi va nazariyasi” kafedrasi dotsenti, a.f.d.

A.D.Nozilov – ToshDTU “Sanoat dizayni”kafedrasi dotsenti, s.f.n.

KIRISH

Ushbu uslubiy qo‘llanmaning asosiy maqsadi kompyuter grafikasi yordamida “Adobe Photoshop” dasturidan foydalanib matnlarga turli xildagi effektlar berishni o‘rganish. Qo‘llanma qiziqarli mavzuga – “Adobe Photoshop” dasturida matnlar bilan ishlashga bag‘ishlanadi. Bunda avvalo dastur funksiyalari: matn kiritish va u bilan ishlash, kontur va shakllardan foydalanish, qatlamlarda effektlar bilan ishlash, hamda shrift turlarini tanlash bilan ishlanadi. So‘ngra antiqa shrift effektlarini, ya’ni aksini, yoritilganligini va boshqa turdagি effektlar yaratiladi. “Adobe Photoshop” dasturidan foydalanilgan holda shriftlarda ba’zi bir effektlarni yaratish ketma-ketligi ko‘rib chiqiladi.

SHISHADEK SHAFFOF MATN YARATISH

Mashg‘ulotda tasvirdagi matnni shaffofligiga erishishning bir necha usullarini o‘rganamiz.

Birinchi usul – tez, oson, ikkinchisi esa birmuncha qiziqarli, bunda qatlam stilidan foydalaniladi, undan tashqari ikki qatlam ko‘rsatkichlarining farqi ko‘riladi: Xira (Opacity) va quyilma (Fill).

Bu mashg‘ulot o‘z ichiga ikki yo‘nalishni birga olib boradi, ya’ni foto-effektni va matn effektini yaratadi. Quyidagi tasvirdan ish davomida foydalaniladi (1-rasm):



1-rasm.

Quyida keltirilgan rasm natijaviy rasm bo‘lib, ana shu rasmni yaratishga intilinadi (2-rasm).



2-rasm.

1-bosqich. Tasvirga matn qo‘shiladi. Buning uchun “T” matn yaratish asbobi olinadi, oq rang o‘rnataladi, mos keluvchi shrift va uning

o‘lchamlari tanlanadi. So‘ngra ixtiyoriy matn yoziladi. Bu holatda “**diving**” haqida biror bir narsa yozilsa mantiqiy bo‘ladi. Masalan: “SCUBA DIVING” (3-rasm).



3-rasm.

Matn yozib bo‘lingach panelning yuqorisidagi “галочка” belgili tugma bosiladi (4-rasm).



4-rasm.


2-bosqich. Erkin transformatsiya yordamida matnning o‘lchamlari va holati o‘zgartiriladi. Erkin transformatsiya asbobini tanlash uchun “Ctrl+T” tugmasi bosiladi. Matn ixtiyoriy joylashtiriladi. Agar zarur bo‘lsa uning o‘lchamlari o‘zgartiriladi (matnni chegaralovchi to‘g‘ri to‘rburchakning nuqtalarini tortib). “Shift” tugmasi bosiladi, natijada transformatsiya surkalmasdan amalga oshiriladi (5-rasm).



5-rasm.

Transformatsiyalangan holatni saqlash uchun “Enter” tugmasi bosiladi. Endi matnni tiniqlashtirishning eng sodda usulini ko‘rib chiqamiz.

3-bosqich. Matn qatlaming xiraligi kamaytiriladi. Eng oson usuli – bu qatlamdagи matnning xiraligini kamaytirishdir. Agarda qatlamlar palitrasiga nazar solinsa, u yerda kerakli ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ladi. Sichqonchaning chap tugmasi xiralik ko‘rsatkichiga bosiladi va xiralikni 50% ga o‘rnataladi (6-rasm).



6-rasm.

Quyida keltirilgan holat paydo bo‘ladi (7-rasm).




7-rasm.

Xiralikni ixtiyoriy mustaqil ravishta sozlash mumkin. Matnni shaffof qilish uchun boshlanishiga xiralikni 100% ga qaytariladi.

4-bosqich. Quyish ko‘satkichi “Fill” 0% gacha kamaytiriladi. Shuni aytish lozimki, xiralik ko‘rsatkichi ostida yana bir ko‘rsatkich bo‘lib, uning nomi “Fill”. Agarda ana shu ko‘rsatkich surgichini boshqarsak, effekt o‘zgarmaydi. U holda farq nimadaligini ko‘rib chiqamiz.


5-bosqich. Tashqi nur taratish “Outer Glow” stilini qo’shamiz. Palitralar qatlamining pastida “**qatlamlar**” tugmasi bosiladi, natijada stillar ro’yxati paydo bo’ladi, ularni stilga qo’shish mumkin. Undan “Outer Glow” stili tanlanadi, ya’ni tashqi nur taratish (8-rasm).



8-rasm.

Paydo bo’lgan muloqot oynasidan kerakli sozlashlarni o’rnatish mumkin. Endi matnga naraz solinsa, yengil nur tarqalishi paydo bo’lganligi seziladi. “OK” tugmasi bosiladi. So’ngra xiralikni kamaytirib ko’rilsa – barchasi sekin asta yo’qoladi. Xiralik avvalgi holiga qaytariladi. Quyish “Fill” kamaytiriladi – u holda faqat matn yoqoladi. Lekin nurlanish qoladi. Yuqorida tilga olingan quyish “Fill” ko’rsatkichining siri ana shunda, ya’ni qatlam shaffof bo’ladi, lekin uning stili o’zgarmaydi.

Dasturdagi stilni “Outer Glow” sozlashda sariq rang turibdi. Ana shu rangni tasvirdagi rangga mos keladiganiga almashtiriladi. Rangli kvadratga bosilib, ranglar palitrasiga kiriladi (8.1-rasm).




8.1-rasm.

Pipetka bilan palitraga emas, balki bevosita rasmdagi och havo rangga bosiladi (9-rasm).



9-rasm.

Rangning yoritilishi tanlangan rangga o‘zgaradi. Endi xiralik 100% ga, so‘ngra yoritilganlik o‘lchamini 20px gacha oshiriladi (10-rasm).



10-rasm.


“OK” tugmasi bosiladi, natijada quyidagi tasvir hosil bo‘ladi (11-rasm).



11-rasm.

Matnning ajralib turishi ta'minlanadi.

6-bosqich. "Fill" ko'rsatkichi 100% ga qaytariladi (12-rasm). **Bu** yerda 2-rasm bo'ladi.




12-rasm.

Matn yana oq rangga qaytadi (13-rasm).



13-rasm.

7-bosqich. Matn qatlamingning quyish rejimini "Overlay" ga o'zgartiriladi, ro'yxatdan "Overlay" rejimi tanalandi (14-rasm).



14-rasm.

Rasmga nazar solinsa, u istalgandek shaffof, lekin matn ostidagi ranglar to‘yingan (15-rasm).



15-rasm.


Agarda “Overlay” rejimi juda yorqin ko‘rinayotgan bo‘lsa, u holda “Soft Light” – yumshoq rang rejimdan foydalanib ko‘riladi. Ana shu holatda ishni to‘xtatsa bo‘ladi, lekin yana bir stil qo‘shiladi.

8-bosqich. “Inner Glow” ichki nur tarqalganlik stili qo‘shiladi. Stillar ro‘yxatidan “Inner Glow” tanlanadi. Avval bajarilgandek, rangi bevosita rasmdan olinadi, bu safar to‘q moviy rang (16-rasm).



16-rasm.

Quyidagi sozlashlar o‘rnatalidi: “Multiply” ustiga yotqizish rejimi, xiralik 40%, o‘lcham 18px (17-rasm).



17-rasm.

“OK” tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi rasm hosil bo‘ladi (18-rasm).




18-rasm.

MATN HARFLARIDA YONAYOTGAN EFFEKTNI YARATISH

Bu mashg‘ulotda matnni yonayotgan effektini yaratilishi o‘rganiladi.

1. $400\text{px} \times 400\text{px}$ o‘lchamli yangi hujjat yaratiladi va u qora rangga bo‘yaladi (1-rasm).



1-rasm.

2. “T” matn asbobi olinadi, oq rang o‘rnatilib, hohlagan shrift bilan ixtiyoriy so‘z yoziladi. Yozuv juda ingichka bo‘lmasligi lozim (2-rasm).




2-rasm.

3. “Edit—Transform—Rotate 90 CCW” menyuga o‘tiladi (3-rasm).



3-rasm.

4. So‘ngra “Filter—Stylize—Wind” ga kiriladi. Ana shu filtrni 3-4 marta qo‘llaniladi. Buning uchun “Ctrl+F” tugma bosiladi. Matn varoq bo‘ylab surkalganiga ahamiyat berilmaydi. Ayni vaqtida olov chiziladi. Matnga esa keyinroq qaytiladi. Filtr qo‘llanilayotganda matnni rastr formatga aylantirish so‘raladi, albatta ha deb javob berish kerak (4-rasm).



4-rasm.

5. So‘ngra matn “Edit—Transform—Rotate 90 CW” bilan orqaga buriladi (5-rasm).




5-rasm.

6. “Layer—Flatten Image” menyuga o‘tiladi. So‘ngra yana bir “Filter—Blur—Gaussian Blur—3.0” filtr qo‘llaniladi (6-rasm).



6-rasm.


7. “Ctrl+U” tugma bosiladi, “Цвет/насыщенность” оynasi paydo bo‘ladi. Unda rasmdagidek sozlashlar o‘rnatiladi (7-rasm).



7-rasm.


“Colorize” belgisini belgilash unutilmasligi lozim.

8. Quyidagidek rasm hosil bo‘ladi (8-rasm).




8-rasm.

9. “Filter—Liquify” ochiladi (9-rasm).



9-rasm.

10. “Wrap tool” asbob tanlanadi. Mo‘yqalam ko‘rsatkichini quyida ko‘rsatilgandek tanlanadi (10-rasm).



10-rasm.


11. Endigi vazifa olovni tasvirlovchi to‘g‘ri chiziqlarni to‘lqinsimon chiziqlarga aylantirishdir (11-rasm).



11-rasm.

12. So‘ngra “Image—Adjustments—Levels” o‘tiladi yoki “Ctrl+L” tugma bosiladi. Natijada 3 ta kichkina ko‘rsatkich paydo bo‘ladi: qora, kulrang va oq.

13. Qora ko‘rsatkichni ushlab, uni o‘ngga suriladi, toki uning ko‘rsatkichi 80 teng bo‘lguncha (13-rasm).




12-rasm.

14. Qora ko‘rsatkich surilganda olov o‘zgaradi (13-rasm).




13-rasm.

15. “Background” qatlamning nusxasi olinadi. (Layer—Duplicate Layer) (14-rasm).



14-rasm.

16. “Ctrl+U” tugma bosiladi va “Цвет/насыщенность” oynasida “Hue” ko‘rsatkichni 30 gacha kamaytiriladi. Ana shu qiymatga “Color Dodge” rejim o‘rnataladi (15-rasm).



15-rasm.

17. Yana “T” asbobi tanlanadi va yana bir marta o‘sha yozuv o‘sha shriftda va o‘lchamda qayta yoziladi. So‘zning harflarini yonayotgan harflar ustiga joylashtiriladi (16-rasm).



16-rasm.

Ikki marotaba matnli qatlamga sichqonchaning chap tugmasi bosiladi, still qo‘shish oynasi paydo bo‘ladi. “Gradient overlay” stili tanlanadi va dasturda o‘rnatilgan oq rangdan qora rangga o‘tish gradient qo‘llaniladi. So‘ngra “Stroke” still tanlanadi va qatlamga oq hoshiyani (обводка) 2px da qo‘shiladi (17-rasm).



17-rasm.

NEON EFFEKTЛИ HARFLARNI YARATISH


“Photoshop” dasturining bu mashg‘ulotida matn harflariga yonuvchi neonli effektni berish o‘rganiladi.

1. 300×300 px o‘lchamli hujjat yaratiladi. U qora rangga bo‘yaladi. Harf yoki so‘z yoziladi (1-rasm).




1-rasm.

2. Matnni belgilash uchun “Ctrl” tugmasini bosib turib, matn qatlamiga sichqonchaning chap tugmasi bosiladi (2-rasm).



2-rasm.

3. Inglizcha “M” harfi bosiladi va shtrix chiziqli belgini pastga 4-5 px va 2 px o‘ngga suriladi (3-rasm).



3-rasm.

4. Belgilanganni **invertrash** uchun “Shift+Ctrl+I” bosiladi. So‘ngra “Alt+Shift+Ctrl” birgalikda bosilgan holda, sichqonchaning chap tugmasi

matnli qatlamga bosiladi. Rasmda ko‘rsatilgandek belgilanish paydo bo‘lishi kerak (4-rasm).



4-rasm.

5. Yangi qatlam hosil qilinadi (Shift+Ctrl+N). Belgilanganni oq rangga bo‘yaladi (5-rasm).




5-rasm.

6. Belgilanganlikni olib tashlash uchun “Ctrl+D” bosiladi. Endi asosiy menyudan “Filter—Blur—Gussian Blur” tanlanadi va 1,4–1,6 px ga yuviladi (6-rasm).



6-rasm.

7. “Filter—Render—Lighting Effects” ga kiriladi va oq yuvilgan qatlamga quyidagi sozlashlar qo‘llaniladi (7-rasm).




7-rasm.


8. Yoritilganlik effekti qo'shilgandan so'ng harf quyidagi ko'rinishda bo'ladi (8-rasm).



8-rasm.

9. Matnli qatlama ustida ikki marotaba sichqonchaning chap tugmasi bosiladi va quyidagi still qo'shiladi (9-rasm).







9-rasm.

10. Stillar qo'shilgandan so'ng ko'rinish quyidagicha bo'ladi (10-rasm).




10-rasm.

11. Yangi qatlam hosil qilinadi. Quyidagi ko'rinishdagi mo'yqalam yordamida harfda ikkita yulduzcha chiziladi (11-rasm).



11-rasm.

12. “Blending mode” qatlamlar aralashtirish rejimini “Soft light” rejimiga almashtiriladi (12-rasm).



12-rasm.

13. Matn tayyor (13-rasm).



13-rasm.

14. Ana shu usulda biror so‘z yozish mumkin, masalan, 14-rasmdagidek.



14-rasm.

TABIIY YASHIL RANGDAGI HARFLARNI YARATISH


Bu mashg‘ulotda matnga tabiiy yashil rang effekti berilishi o‘rganiladi.

1. Oq fonli yangi hujjat yaratiladi. “T” matn asbobi va xohlagan qiziqarli shrift tanlanadi. Bunda “Cream And Sugar” shriftdan foydalilaniladi. Matn rangi jigarrang-#5a4929.




1-rasm.

2. Matnni belgilash uchun “Ctrl” tugmasi bosilgan holda sichqonchaning chap tugmasi yordamida qatlam oynasidan “T” harfli tugmaga bosiladi. Natijada quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi (2-rasm).




2-rasm.

3. Yangi qatlam hosil qilinadi (Shift+Ctrl+N) va uni “maysa” deb nomlaymiz.
4. Mo‘yqalam asbobi tanlanadi. “Brush Presets” oynaga o‘tiladi (3-rasm).



3-rasm.

So‘ngra 112-raqamdagи mo‘yqalam tanlanadi. Sozlashlar vaqtida quyida ko‘rsatilgandek barcha qiymatlar o‘rnataladi. Ko‘rgazma oynasidan bajariladigan sozlanishlarga ko‘ra mo‘yqalam turi tekshiriladi (5-rasm).




5-rasm.

5. O‘tni chizish uchun ikkita rang tanlanishi lozim. Biri oldingi plan uchun, ikkichisi orqa plan uchun. Bu yerda ikkita to‘yingan yashil rangdan foydalilaniladi, to‘q—#007b06 va och—#87e41b ranglardan (6-rasm).




6-rasm.

6. Endi bevosita matn bo‘ylab rasm chiziladi. Ko‘rinib turibdiki, ajratilgan matnning chegarasidan mo‘yqalam chiqib ketmaydi (7-rasm).



7-rasm.

7. “Ctrl+D” tugmalar bosilib, belgilash olib tashlanadi. Endi matn zihida omaysalarni rasmni chiziladi. Mo‘yqalam o‘lchami bir oz kamaytiriladi. Har bir harf perimetri bo‘ylab rasm chiziladi (8-rasm).



8-rasm.

Ish tugaganda tabiiy yashil rangdagi matn hosil bo‘ladi (9-rasm).



9-rasm.


HARFLARDA YORUG'LIK EFFEKTINI YARATISH

1. “Photoshop” dasturini ochiladi va yangi hujjat yaratiladi. Masalan, 1920, 1200 piksel o‘lchamli. Foni qora rang bilan quyiladi (1-rasm).




1-rasm.

2. Tanlangan logotip importlanadi va uning nusxasi olinadi. Kerakli effekt olish uchun ikkita qatlam kerak bo‘ladi – biri yoritiladi – ikkinchisi neonli yorug‘lik bo‘ladi (2-rasm).




2-rasm.

3. Bir qatlamni tanlab va “Filter—Blur—Gaussian Blur” ga kiriladi. “Radius” 5.5px qiymati beriladi (3-rasm).



3-rasm.

4. Boshqa logotip qatlamiga “Layer—Group Layers” kiritiladi. Natijada papka ichida qatlam hosil bo‘ladi. Ana shu papka uchun qo‘yish rejimini “Color Dodge” ga almashtiriladi. Papkaning o‘zidagi qatlam uchun menuy stiliga kiriladi va unga “Inner Shadow” belgilanadi. Qora rang tanlanadi, yotkazish rejimini esa “Multiply” stil uchun “Opacity” ni 75% gacha pasaytiriladi, burchak 90 belgilanadi, “Distance” 1 px ga, “Size” esa 2 px ga teng qilinadi. Yana bir muhim jihatni “Contour”, “Cone-Inverted” turda bo‘lishi kerak (ro‘yxatdan tanlanadi). So‘ngra “Outer Glow” tanlanadi: “Color Dodge” yotkazish rejimi, “Opacity” 50%, “Noise” 0%, oq rang tanlanadi. Oxirida qatlam yuviladi, shuning uchun “Filter—Blur—Gaussian Blur” ochiladi va 2 px radius uchun belgilanadi (4-rasm).



4-rasm.

5. Barcha qatlamlar tanlanadi va ularni nusxasi olinadi (Layer—Duplicate). So‘ngra barcha nusxalar bir qatlamga keltiriladi (Layer—Merge Layers), keyin unga “Filter—Blur—Gaussian Blur” tadbiq qilinadi va 100 px ga teng radius belgilanadi. Qatlamni logotip orqasiga o‘rnatalidi. U orqa planda bo‘lishi kerak (5-rasm).



5-rasm.


6. Qolgan qatlamlar ustidan yana biri yaratiladi va “Filter—Render—Clouds” ochiladi. Bu filtr rasmni tabiiy qilib ko‘rsatishga yordam beradi, u judayam to‘g‘ri chiziqdagi bo‘lmaydi. Bundan oldin asosiy va fonning rangi

qora va oq ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Undan so‘ng yotkazish rejimi “Soft Light” ga almashtiriladi va “Opacity” gacha pasaytiriladi (6-rasm).



6-rasm.

7. 3-bandda yaratilgan tumanga o‘xhash qatlam tanlanadi va “Layer—Layer Style—Drop Shadow” ochiladi. Ana shu qatlam uchun “Color Burn” yotkazish rejimi belgilanadi, qora rang tanlanadi, “Opacity” 25%, “Angle” 90, “Distance” 20 px, “Size” 10 px. Bu stil soya hosil qiladi va kompozitsiyaga katta chuqurlik beradi (7-rasm).



7-rasm.

Yuqoridagi ketma-ketlikda amallar bajarilishi natijasida quyidagi tasvir hosil bo‘ladi (8-rasm).



8-rasm.

Glossary (izohli lug‘at).

№	Atama	O‘zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
1	Qatlam stili	Belgilangan qatlamdagi stil.		
	Стиль слоя	Стиль для выбранного слоя.		
	Layer(Layer style)	The style for the selected layer.		
2	Xiralik	Tanlangan tasvirning shaffofligi, xiraligi.		
	Непрозрачность	Непрозрачность выбранного изображение		
	Opacity	Opacity of selected image		
3	Quyilma	Belgilangan yuzaga rang beruvchi asbob.		
	Заливка	Инструмент для покраски, выбранной плоскости		
	Fill	Tool for painting the selected plane		
4	Matn	Matn yaratish asbobi.		
	Текст	Инструмент, создающий текст		
	Text	Text-creating tool		
5	Transformatsiya	Belgilangan tasvirni boshqarish (o‘lchamlarini o‘zgartirish, bukish, cho‘zish, joyidan qo‘zg‘atish).		
	Трансформация	Манипулировать выбранным изображением (изменение размеров, деформация, растягивание, перемещение).		
	Transformation	Manipulate the selected image (resizing, warping, stretching, moving).		
6	Qatlam	Tasvirlar ketma-ketligi, yoki taxlami.		
	Слой	Последовательность изображения.		
	Layer	Image sequence.		
7	Palitra	Rang tayyorlash uchun mo‘ljallangan oyna, yuza.		
	Палитра	Окно для создания цветов.		
	Palette	Window to create colors.		
	Filtr	Dasturdagi tayyor effektlar to‘plami.		

8	Фильтр	Сборник эффектов имеющийся в программе.
	Filter	Collection of effects available in the program.

Adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Аббасов И.Б. Изображения в графическом редакторе Photoshop. Учебное пособие. Таганрог: Изд-во ТРТУ. 2003. 272 с.
2. Петров М.Н. Волочкин В.М. Компьютерная графика. Учебник.-СПБ:Питер,2004. 736 с.
3. Коцюбинский А. Горшев С. Компьютерная графика.-М.: Техноджи,2001. 320 с.
4. Л.Б.Левковеч, Векторная графика. Corel Draw X6. Санкт-Петербургский национальный исследовательский университет информационных технологий, механики и оптики,2013. 336 с.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. –Т.: O‘zbekiston, NMIU, 2016. 56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi ma’ruza 2016 yil 7 dekabr. – Т.: O‘zbekiston NMIU, 2016. 48 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Т.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. - Т.:2017. 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
5. Гез Т.М., Дмитриева И.В. «Графическая реклама в условиях рыночной экономики», ТашГТУ. 1995.-16с.
6. Джетере И.Э. Упаковка. Учебное пособие. - Т.:ТашГТУ, 2003. 67 с.
7. Курушин В.Д., Графический дизайн и реклама. - М.:ДМК Пресс,2001. 272 с.
8. Дмитриева И.В., Джетере И.Э. Цветовая композиция. Учебное пособие. ТашГТУ, 2003. 120 с.
9. Скотт К. Хитрости и секреты работы в Photoshop 7. - М.,2003. 288 с.

10. Гурский Ю. Photoshop 7. Трюки и эффекты.-СПБ.: Питер, 2002. 462 с.

Internet saytlari

11. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
12. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
13. www.ziyo.net.
14. www.rewiew.uz.
15. www.cer.uz.
16. www.rosdesign.com/design/slovarofdesign.htm.
17. www.4lights.ru.

MUNDARIJA

1. Shishadek shaffof harflarni yaratish.....	4
2. Matn harflarida yonayotgan effektni yaratish.....	11
3. Neon effektli harflarni yaratish.....	17
4. Tabiiy yashil rangdagi harflarni yaratish.....	22
5. Harflarda yorug'lik effektini yaratish.....	25

Muharrir Sidikova K.A.